

**To‘ychiyev Hojimurod Zaylobiddin o‘g‘li**

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot  
instituti Farg‘ona mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodimi

**Imomaliyev Erali Nurali o‘g‘li**

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot  
instituti Farg‘ona mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodimi

---

## **GILOS DARAXTINING SO‘RUVCHI ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI**

**Annotatsiya:** Maqolada gilos bog‘larda uchraydigan so‘ruvchi zararkunandalar va ularga qarshi kurash usullari haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Gilos, daraxt, zararkunanda, shira, bog‘ kanasi, qalqondor, o‘rgimchakkana, komstok qurti, pestitsidlar, akaritsid, insektitsidlar, barg, meva.

**Abstract:** The article provides information about sucking pests found in cherry orchards and methods for controlling them.

**Keywords:** Cherry, tree, pest, aphid, garden mite, scale insects, spider mite, Comstock worm, pesticides, acaricide, insecticides, leaf, fruit.

**Kirish:** Har bitta o‘simlikning zararkunandasi mavjud. Shu asnoda zararkunandalar turli xil ko‘rinishda zarar yetkazadi. Misol uchun oddiy o‘rgimchakkana o‘simliklar bargi orqali shirasini so‘rib zarar yetkazadi. Kemiruvchi zararkunandalardan misol qilib olcha shilliq arrakashi- (Caliroa cerasi)ni ko‘rsatish mumkin.

**Asosiy qism:**Kulrang bog‘ kanasi. Birinchi avlodiga mansub voyaga yetgan urg‘ochilari bahorda olma daraxti gullashidan so‘ng zarar yetkaza boshlaydi. 3-4 kundan keyin ular tuxum qo‘yadi. Ushbu tur ko‘payishning partenogenetik usuli bilan ajralib turadi va yetuk zotlari orasida erkaklari deyarli uchramaydi.



Mevali daraxtlardan asosan olma daraxti ko‘proq shikastlanadi. Qo‘ng‘ir meva kanasi barglardan sharbatlarni so‘rib oladi, bu suv muvozanatining buzilishiga, xlorofill darajasining pasayishiga va natijada fotosintezning to‘xtatilishiga olib keladi. Kanalar bilan zararlangan barglarning rangi kulrang-oq, ba‘zan jigarrang ranggacha o‘zgaradi. Natijada zaiflashgan daraxt endi to‘liq hosil bera olmaydi, hosildorlik 20-50 % gacha kamayishi mumkin.



Zararkunandalarning qishlovdan chiqayotgan zaxirasiga qarshi Fevral oyining oxiri mart oyining boshida havo harorati ko'tarilib, zararkunandalar uyg'ona boshlagan davrda qishlovdan chiqayotgan kanalarga qarshi havo harorati +7S dan oshganda neft moylari asosli preparatlar va uning analoglari bilan profilaktik kurash choralarini o'tkazish tavsiya etiladi. Vegetatsiya davrida daraxtlarning 10 sm novdasida 100 dan ortiq zararkunanda mavjud bo'lsa (1 tup daraxtning barglarida 5-7% zararlanishi aniqlansa) geksidiazoks, propargit, geksitiazoks + propargit, dimetoat asosli va boshqa tavsiya etilgan akaritsidlarni qo'llash tavsiya etiladi. Oddiy o'rgimchakkana juda mayda bo'g'inoyoqli jonivorlar namunasi bo'lib uni oddiy ko'z bilan zo'rg'a ko'rish mumkin. Tanasi oval shaklda, bo'yi 0,3-0,6 mm ga boradi. Uning bahor-yozdagi bo'g'ini ko'kish-sariq, qishlab chiqadiganlari esa to'q sariq-qizil bo'ladi. Tanasining yon tomonlaridagi ikkita qoramtir dog'lari yaqqol ko'rinib turadi. Urg'ochisi rivojlanishida tuxum, lichinka, pronimfa, deytonimfa va yetuklik (imago) davrlarini kechiradi. Tuxumi yumaloq shaklda bo'ladi. O'rgimchakkana qishlovdan juda barvaqt, o'rtacha bir kecha-kunduzlik harorat 7,3°S dan oshganda chiqadi. O'rgimchakkananing birinchi bo'g'ini begona o'tlarda, ayniqsa qo'ypechak kabi o'tlarda rivojlanadi. O'rgimchakkana yozda (iyun-avgust) 8-12 kunda, may oyida 15-20 kunda, mart-aprel oylarida esa 25-30 kunda bir bo'g'in berib rivojlanadi. Zararlangan barglarining ustki tomonida och tusli, qattiq zararlangan joylarida esa qo'ng'ir va qizg'ish dog'lar hosil bo'ladi. Zararkunandalarning qishlovdan chiqayotgan zaxirasiga qarshi Fevral oyining oxiri mart oyining boshida havo harorati ko'tarilib, zararkunandalar uyg'ona boshlagan davrda qishlovdan chiqayotgan kanalarga qarshi havo harorati +7S dan oshganda neft moylari asosli preparatlar va uning analoglari bilan profilaktik kurash choralarini o'tkazish tavsiya etiladi. Vegetatsiya davrida daraxtlarning 10 sm novdasida 100 dan ortiq zararkunanda mavjud bo'lsa (1 tup daraxtning barglarida 5-7% zararlanishi aniqlansa) geksidiazoks, propargit, geksitiazoks + propargit, dimetoat asosli va boshqa tavsiya etilgan akaritsidlarni qo'llash tavsiya etiladi.



Olxo'ri soxta qalqondori (Hemiptera) turkumi, Coccidae oilasi mansub. Ikkinchi yosh lichinkalari daraxt po'stiga yopishib qishlab chiqadi. Bahorda havo harorati 6-7° ga yetishi bilan harakatga tushgan lichinkalar qulay ochiq joy topib oziqlana boshlaydi. Yetuk urg'ochi zotlari may oyida paydo bo'ladi va urchib yoki urchimasdan (partenogenez) tuxum qo'yishga kirishadi.

Tuxumni o'zining qalqoni tagiga qo'yadi, bu davr 16-20 kunni egallaydi. Bitta urg'ochi zot 2 oy mobaynida 696 donagacha tuxum qo'yishi mumkin. O'zbekiston sharoitlarida olxo'ri soxta qalqondorining har bir urg'ochi zoti 500 dan 2000 tagacha tuxum qo'yishi mumkin. Muallifning ko'rsatishicha, zararkunandaning ikkinchi avlod lichinkalari avgust oxirida chiqadi va 2-yoshli lichinkalari qishlovga tayyorgarlik ko'radi. Olxo'ri soxta qalqondorida tekinox'rlilik qiladigan kushandalar uchrab turadi. Bu zararkunanda tushgan daraxt himoyalansa 2-3 yilda qurib qolishi mumkin. Asosan daraxtlarga zarar yetkadi. Qishlovdan chiqayotgan zararkunandalarga qarshi neft moylari asosli preparatlar va uning analoglari bilan profilaktik kurash choralarini o'tkazish. Katta shaftoli tana shirasi bilan kuchli zararlangan bog'larda imidaklopid, tiametoksam, lyambda-sigalotrin, aversektin, fenoksikarb asosli preparatlardan biri bilan ishlov o'tkazish lozim.



Vergulsimon qalqondorlar—teng qanotlilar turkumi qalqondorlar oilasiga mansub hasharotlarning bir necha turi, tanasining qalqoni vergulsimon egilganligi uchun shunday nom berilgan. O'rta Osiyo Vergulsimon qalqondorlar (*Lepidosaphes mesasiatica*) tanasi sarg'ish-malla, uzunligi 3,5—4,7 mm. Keng ma'noda polifag, O'rta Osiyo endemigi. Lichinkasi va urg'ochisi terak, tol, na'matak, katalpa, shuningdek olma, nok va boshqa mevali daraxtlarda oziqlanadi va ko'payadi. Yil davomida 2 nasli rivojlanadi, tuxumi daraxtlarning tanasi va butoqlarida qalqon ostida qishlaydi. Erkin yashovchi nasli may oyi boshlarida paydo bo'ladi va o'simliklarga yopishib olib, umrini oxirigacha bu joyni tark etmaydi. Olma vergulsimon qalqondori (*Lepidosaphes ulmi*) oldingi turga nisbatan oqishroq rangda, tanasi kichikroq (2,5—3,0 mm), mevali daraxtlar (olma, nok, behi, shaftoli, olxo'ri, o'rik, gilos va b.) ga ziyon keltiradi. Yil davomida bitta nasli rivojlanadi. Vergulsimon qalqondorlar ga qarshi kurashish uchun kuzda, erta ko'klamda daraxtlar barg yozmasdan oldin 8% li mineral moy emulsiyasi purkaladi.



Kaliforniya qalqondori (*Quadraspidotus perniciosus*) — teng qanotli hartumlilar turkumining qalqondorlar oilasiga mansub hasharot. Mevali, manzarali va bargli o'rmon daraxtlarining karantin o'ta xavfli zararkunandasi. Urg'ochilari och sariq rangda, tanasi dumaloq. Tanasining ustki tomoni to'q kulrang, diametri 2 mm, qalqon bilan qoplangan. Og'iz organlari so'ruvchi,

ko‘zi, mo‘ylovi, oyog‘i va qanoti yo‘q, kam harakatchan. May—iyul oylarida bir urg‘ochisi 200—500 ta tirik lichinka tug‘adi. Bir yilda 3 avlod beradi. Ular olma va nok daraxtlariga ko‘proq zarar yetkazadi, bundan tashqari, u behi, o‘rik, bodom, yong‘oq, olxo‘ri, tog‘olcha, gilos, olchaga zarar yetkazadi, boshqa juda ko‘p mevali daraxtlar, tok manzarali daraxt va butalarning shirasini so‘radi. Asosan, zararlangan mevalarda yoki novdalarda qizg‘ish dog‘lar paydo bo‘ladi, po‘stloq yoriladi, bargi to‘kilib, daraxt qurib qoladi. O‘zbekiston hududiga 1964 yilda ko‘chatlar bilan kelib qolgan. Deyarli hamma viloyatlarda uchraydi. Biologik kurashda xonqizi va xalsid parazitlardan foydalaniladi. Eng samarali usuli, meva daraxtlariga gullashdan oldin erta bahorda pestitsidlar bilan ishlov berish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sh.T.Xo‘jayev - O‘simliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari
2. Konstantinova G. M., Ko-zarjevskaya E. F., Kaliforniyskaya shitovka, M., 1990
3. Pospelov S.M, Arsenyeva M.V, Gruzdyev O‘simliklarni himoya qilish “ o‘qituvchi nashriyoti” Toshkentn-1978